

“OSMONDAGI BOLALAR 3 “ FILMI

Erkinboyeva Sevinch.

San'at va madaniyat instituti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada, bir film timsolidan milliylikka qanchalik mos tarzda ishlangani tahlil qilinib o'tilgan.

Kalit so'z: milliylik, qadiryat, jangovar.

“Osmondagi bolalar 3”, filmi yoxud “Yerdagi otalar” . Bu filmning 1,2-qismlarini deyarli barchamiz sevib tomosha qilganimiz ! Bu filmning rejessiyori Zulfiqor Musoqov serqirra ijodkor, mohir rejessiyor va senariynavis hisoblanadi . Buni premyeraga kelgan, zalda to‘lib o‘tirgan tomoshabinlar ham isbotlaydi. Film barcha tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olindi. Filmni ko‘rar ekanman, aktyor va aktrisalar ijrosi , kadrlar, montaj , grim va tanlangan lokatsiyalar juda yoqdi . Filmda humor ham , romantika ham , drama ham hatto jangovar sahnalar ham bor , bu filmni yanada qiziqarli qilgan . Filmni yana bir yoqgan tarafi voqealarga xos kichik taqlidiy kalit so‘zlar ham bor . Misol uchun: erta tongda Baxtiyorni o‘g‘li onasini qistovi bilan ko‘zini ochar-ochmas, otasi Baxtiyorni uyqudan turg’azishga borib, otasiga qo‘silib uqlab qolgan joyidan so‘ng , olmaning tagiga olma tushgan kadr, bizning xalq maqolimiz , “Olmaning tagiga olma tushadi “. Yana qizning buvisi qatiq - sut sotadigan yigitning onasi bilan suhbati , Baxtiyorning qizi qatiq sotadigan bolani yaxshi ko‘rib qolgani uchun muzlatkichiga qatiqni to‘ldirib tashlashi alohida e’tiborni tortadi.

Filmda bu to‘rt yigitning hayoti , hayot yo‘llarida doim birdamlilikda bo‘lishlari , haqiqiy do‘stlikni abadiy yashashini ko‘rishimiz mumkin. Biror birining



Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

muammosi tug‘ulganda , boshqalari qo‘lidan kelgancha unga yordam berishi , bu qanday baxt ! Bu qanday ajib tuyg‘u ?!

Film boshlangan joyda tugamoqda, ya’ni daraxtning oldida keng dalada . Filmdagi daraxt – bu millat belgisi . Daraxt oddiy emas , bir ikki qism bo‘lib ulangan edi , balki bu ularning birdamligi sifatida tasvirlangandir. To‘rt yigit osmonga qaraganda burgut ko‘rsatiladi. Burgut tabiatan kuchli , qo‘rqmas , erkin qush , balki ularni ham shunday qilib tasvirlagandir rejessiyor . Filmdagi yana faxrlanishga arzigulik tarafi bu – milliylikni o‘zgacha aks ettirilgani . To‘rt yigitning Italian ovqatini tanavvul qilolmay , o‘zimiznikidan qo‘ymasin deya osh, norin , har xil milliy taomlarni tanovul qilishi filmda o‘zgacha aks etgan . Aynan shu kadrda , ovqatlarni olib kelishganda ,”nima bu ?” deya savol berishganda “ Vatan bu ! “ deya javob berishi rejessiyorning eng zo‘r topilmasi bo’lgan . Rejessiyor aynan Ezop tili iboralaridan unumli foydalana olgan . Filmdagi musiqalar esa juda ajoyib tanlangan , Baxtiyoring qizi qatiq olish uchun ketayotgandagi sahnasiga juda chiroyli va kadrga mos milliy ashula qo‘yilgan. Bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsam filmdagi har bir musiqa o‘z o‘rnida ishlatingan . Har bir filmning o‘z kamchiligi bo‘lganidek, bu filmda ham kamchiliklardan holi emas. Bularni yozib o’tish bu biz kinoshunoslarning vazifamiz deb o’ylayman. Bularning birinchisi filmdagi rejessyor yordamchisi sifatida o‘ynagan Fotima Rejametovaning obrazzi judayam me’yoridan oshib ketgan . Uning o‘ta jahldor obrazda tasvirlanishi , o‘zbek ayollariga nisbatan balki rejessyorlarga nisbatan noto‘g‘ri fikr uyg‘otib qo‘yadi deya qo‘rqaman . Har narsaga asabiylashib , baqiradigan rol filmning hurmatini (saviyasini) pasaytiradi .

Filmning asosiy g‘oyasi bu oila va do‘stlik , ammo buni film davomida ochiq yorita bera olishmagan. Filming asosiy kamchiligi uning g‘oyasida, asosiy g‘oya kinoda butkul ochib berilmagan. Film shunchaki hordiq uchun ko‘riladigan kinolar qatoriga kirib qolishidan qo‘rqaman. To‘g‘risini aytganda, oldingi “ Osmondagi bolalar “ bilan oxirgi chiqqan “Osmondagi bolalar” butkul farqli va bu oxirgi “Osmondagi bolalar” oldingilarga o‘xshab yillar davomida ko‘rilsa ham o‘z o‘rnini yo‘qotmaydigan shedevr film sifatida qololmaydi .

Aslini olganda film do‘stlik va olia , muhabbat tushunchalarni o‘z ichiga

olgan , yuqorida aytib o'tganimdek topilmalarga boy chiroyli va zamonaviy film desak yangilishmagan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

- 1.Xasanov, A. (2018). O'zbek kinosi: Tarix va taraqqiyot bosqichlari. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
- 2.Musoqov, Z. (2022). Intervyular va filmografiya to'plami. Toshkent: "San'at" nashriyoti.
- 3.Karimova, M. (2020). Kino tahlili asoslari: Nazariya va amaliyat. Toshkent: O'zbekkino agentligi nashriyoti.
- 4.G'ulomov, T. (2017). O'zbek milliy kino obrazlari: Tahliliy yondashuv. Samarqand: SamDU nashriyoti.
- 5.Qodirova, D. (2019). Kinematograf va milliy g'oya. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.